ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHDA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

EPITET TEMATIKASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)

Ibragimov Jasurbek To'lqinjon o'g'li,
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yurtimiz xalq og'zaki ijodining eng yirik turi doston janri bilan boshqa millatlardan ancha oldinda. Birgina "Alpomish" dostonining 50 taga yaqin variant borligi ham buning yaqqol isboti. Bu dostonda qo'llangan epitetlarni o'rganish undagi qahramonlar tasvirini qandayligini yanada oydinlashtiradi. Ze'ro, baxshilar epitet orqali obrazlar tasvirini ideallashtirish, epik ruhni kuchaytirish, sharqona go'zallik va estetik idealni yuksaltirish kabi vazifalarni bajaragani ayon bo'ladi.

O'zbek xalq dostonlarida epitetlarni tadqiq qilgan I.Boltayeva "epitet shaxs, narsa yoki voqea-hodisaning oddiy aniqlovchisi emas, balki ularning poetik obraz darajasidagi mohiyatini, qimmatini, ado etuvchi vazifasini belgilovchi badiiy hodisa bo'lib, xalq dostonlaridagi g'oyaviy-estetik vazifalarni yoritadi"[1] deya guvohlik beradi. Demak, dostonlardagi epitetlarning mohiyati aniqlansa, ulardagi badiiy-estetik vazifasini belgilash mumkin.

Epitet poetikasini A.N.Veselovskiy[2], A.A.Potebniya[3], V.M.Jirmunskiy[4], V.Ya.Propp[5] kabi rus akademiklari tomonidan yaxshi tadqiq qilingan. I.Boltayeva va N.Nazarovalar o'zbek xalq dostonlarida epitetlarning ifodasi bo'yicha yaxshi ishlarni bajarishgan. Bundan tashqari, epitetning tabiati va uni badiiy matndagi ifodasi bo'yicha ham yaxshi tadqiqot ishlari bajarilgan. Bularda "Alpomish" dostoning Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan aytilgan variant yagona darajada ilmiy tahlil qilinmagan. Bundan kelib chiqadiki, "Alpomish" dostonida mavjud epitetlarni tematik darajasini aniqlash va tavsiflash bo'yicha chuqur tadqiqot olib borilishi kerak.

Tadqiqotda tahliliy, tavsifiy, kontekstual, lingvopoetik va lingvostilistik tahlil metodlaridan foydalanildi. "Alpomish" dostonidagi epitetlarni tematik guruhlarga bo'lishda konseptual hamda leksik-semantik tahlil metodlari yordamida natijalar olindi.

"Alpomish" ajdodlarning buyuk madaniyati, urf-odati, etnik kelib chiqishi va boshqa ko'plab ma'lumotlarni bera oladigan eposdir. Doston hozirgacha o'rganilishi ham undagi bor merosning ahamiyatini ilmiy hamjamiyat xalqqa tushuntirishga yetarlicha say-harakat qilmoqda. Dostonda tasviriylik yaqqol ko'rinishi epitet san'ati bilan bog'liq. Dostondagi epitetlarni tematik guruhlarga bo'lish eposdagi epitet tabiatini aniqlashga xizmat qiladi.

1) Qahramonlik va jasoratni ifodalovchi epitetlar;
2) Nasl-nasabni ifodalovchi epitetlar;
3) Go'zallik va latofatni ifodalovchi epitetlar;
4) Salbiy xarakter va dushman holatini ifodalovchi epitetlar;
5) Ruhiy holat va hissiyotlarni ifodalovchi epitetlar;
6) Sadoqatga oid epitetlar.

Ushbu maqolada alohida ajratilgan tematik guruhlar epitetlarni faqatgina portret tasviri nuqtayi-nazardan kelib chiqqan.

"Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan variantida shunday tasvir uchraydi:

Obod bo'lar, bilsang, Boysunning yurti,
Uchar qushdan o'tar bul mingan oti,
Mingni chopar qo'lda ***keskir po'lati,***
Ko'rsa dushmanlarning qolmas toqati,
Asli o'zi Qo'ng'irot ***elning bekzodi,***
Shul qizimning bul ***atashgan domoti,***
Shul bo'ladi bir ***yurtning vallamati***[6].

Yuqoridagi misralarda epitet bir necha o'rinda kelgan. Ikkinchi misra to'la epitet. Bu tasvir Alpomishning oti Boychiborga bag'ishlangan. Ot uchun ishlatilgan epitetni qahramonlik va jasorat mavzusiga kiritish mumkin. Zero qushdan ko'ra tezroq chopa olish qobilyati jasoratning bir ko'rinishi. Uchinchi misradagi epitet-metafora esa, qilichning tasvirida foydalanilgan. Po'latdan qilingan qurol-aslahalar chidamli, dami qaytmaydigan va o'tkir qilib ishlanishi barchaga ma'lum. Po'lat juda og'ir metal bo'lgani uchun,

[1] Болтаева И. Халқ достонларида эпитет табиати. Филол.ф.ном.дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 12.
[2] Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Ленинград: «Художственная литература», 1940. – 649 с.
[3] Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – Москва: «Высшая школа», 1990. – 342 с.
[4] Жирмунский В. М. К вопросу об эпитете // Памяти П.Н. Сакулина. - М., 1931. – 416 с.
[5] Пропп В.Я. Русский героический эпос. - М.: Лабиринт, 1999. - 640 с.
[6] Alpomish: Xalq og'zaki ijodi/ "Alpomish" dostonlari turkumidan. – Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023. – B. 148.

badiiy adabiyotda, ayniqsa xalq og'zaki ijodida, qahramonlarning kuchining ramzi sifatida tez-tez uchrab turadi. Dostonda ham "keskir po'lat" tasviri orqali Alpomishning qilichi qanchalik chiqamli qilib tasvirlash bilan birgalikda, uning egasini kuchli ekanini ham ifodakab kelmoqda. So'nggi uch misrada aniqlangan epitetlar ham Alpomishning ta'rifi uchun berilgan. "Elning bekzodi", "atashgan domati" va "yurtning vallamati" bosh qahramonni turli taraflardan tasvirlashga xizmat qilgan. "Elning bekzodi" deya berilgan tasvir o'quvchiga Alpomish kimlardan ekanini ko'rsatib turadi. O'zbek tilining izohli lug'atida "bekzod" so'ziga "bekdan tug'ilgan bola; beklar nasliga mansub, bek zoti"[1] degan ta'rif berilgan. Demak, "elning bekzodi" deya berilgan ta'rif Alpomish bekning o'g'li shu bilan birgalikda elga dalda ko'mak bera oladigan shaxs sifatida tasvirlashga katta hissa qo'shgan. Bu nasl-nasab bilan bog'liq epitet hisoblanadi. "Yurtning vallamati" deya berilgan ta'rif bir qarashda o'quvchida salbiy assotsatsiya uyg'otadi, ammo bu so'z dostonda "valene'mat", ya'ni "imon va ehson egasi" ma'nosida kelgan. "Domot" so'zi "kuyov" degan ma'noni bildiradi. Dostonda bu so'z "atashgan" sifatdoshi bilan birikib epitetni hosil qilgan.

Qalmoq bahodirlari Qorajon Alpomish bilan do'st tutungan so'ng bir makonda o'tirganda bostirib keladi, Shu holatda Alpomish bilan Qorajon va Qorajon bilan Qolmoqlik alplar o'rtasida suhabt kechadi. Qolmoqlar Qorajonga o'zlarini shunday ta'rifini keltiradi.

O'lar deb bizni g'am yema,
O'zingdan bizni kam dema,
Mehnat tortib bizlar kelgan,
Ne ishlarni o'zbak qilgan,
*Ne **azamat alplar** o'lgan,*
Biz qaytmaymiz qilmay maydon[2].

Ushbu parchada olohida olingan so'zlar o'zida epitetli birikmani hosil qilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida "azamat" sifatining ta'rifi kiritilmagan ekan. Umuman olganda, o'zbekzabon xalq uchun bu so'z "ulug'", "buyuk" va "qudratli" degan ma'nolarda ishlatilishi hammaga ayon. Ayniqsa, inson ismi bilan bog'langanda bu yanada aniq bo'ladi. Demak, baxshi Qalmoq alplarni "ulug', buyuk va qudratli, deya ta'riflash va izohlash uchun ham "azamat" epitetini ishlatadi. Bu epitetli birikmani qahramonlik va jasoratni ifodalovchi guruhiga kirgizish mumkin. Chunki, qahramonlik va jasorat faqatgina "azamat" kishilar qo'lidan keladigan ish.

Boshingdan pirpirlab sholdan jelaging,
Qarchig'ay changalli, yo'lbars bilaging,
Maydonga kirganda qoplon yuraging,
Sen yondirib men o'chgan chirog'im[3].

Qayqubod Alpomishni qalmoqlar zindonidan ozod qilganda aytilgan misralar. Qayqubod unda Alpomishning portretini yaratish jarayonida uch o'rinda epitetni foydalangan. Bu epitetlar yordamida baxshi "qarchig'ay changali", "yo'lbars bilag" va "qoplon yurak" so'z birikmalarini hosil qilgan. Ularni hammasini metoforaviy epitetlar deyish mumkin. Chunki, baxshi shunchaki tavsif yoki izoh bermaydi. Ularning hammasida majoziylik mavjud. Ushbu epitetlarni alohida-alohida tahlil qilish ulardagi mavzu ko'lamini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Baxshi tomonidan ishlatilgan birinchi epitet "qarchig'ay changali" birikmasi. O'zbek tilining izohli lug'atida "qarchig'ay" "kalta qayrilma tumshuqli, tirnoqlari uzun va o'tkir, ovga solinadigan qush"[4] deya ta'riflangan. Bundan kelib chiqadiki, baxshi o'z qahramoni "tutgani yulib oladigan" sifatida tasvirlash uchun "qarchig'ay changali" metaforaviy epitetini beradi. Ya'ni. Alpomishning qo'li ushlagan joyini qo'yib yubormaydigan, mustahkam va dushmanga nisbatan ayovsiz kuchga ekani qush changaliga o'xshatish orqali ifodalangan. Albatta, bu epitetni qahramonlik va jasoratni ifodalovchi epitetlar guruhiga kiritish mumkin. Chaqqonlik va mahorat o'zining ortidan qahramonlik va jangovorlikni yetaklab keladi.

Ko'pgina xalqlarda yo'lbars kuch-qudrat, haybat va jasurlik timsoli. Baxshi ham ana shu ramziy ma'nonidan foydalanib, qahramoning qo'lini kuchli va jismoniy baquvvat deya ifodalaydi. "Yo'lbars bilag" epitet Alpomishning jismoniy kuchi, yengilmasligi va baquvvatligini bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Demak, bu so'z birikmasida metaforaviy epitet bilan birgalikda mubolag'ani ham uchratamiz. Mubolag'a ham xalq og'zaki ichida keng qo'llanadigan tasviriy vosita hisoblanadi.

So'nggi epitet ham hayvon timsolida majoziy ma'noda qo'llangan. Izohli lug'atlarda "qoplon" insonlarga nisbatan "jasur, marda odam haqida"[5] deya ta'rif berilgan. "Yurak" esa, xalq og'zaki ijodida qo'rqmaslik, mardlik va botirlikning timsolidir. "Qoplon yurak"li deya epitetli birikma qilish, qahramonni jang

[1] Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A. va boshqalar. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 145.

[2] Alpomish: Xalq og'zaki ijodi/ "Alpomish" dostonlari turkumidan. – Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023. – B. 254.

[3] Alpomish: Xalq og'zaki ijodi/ "Alpomish" dostonlari turkumidan. – Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023. – B. 444.

[4] Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A. va boshqalar. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 77.

[5] Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A. va boshqalar. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 213.

maydonida zarracha qo'rquv bilmasligi va shijoatli ekanini bildiradi.

Baxshi ushbu misralarda tabiatdagi eng kuchli yirtqich hayvonlar timsolidan foydalanib, Alpomishning portretini juda ta'sirli, tushunarli va ma'noga boy tarzda tasvirlagan. Alpomishning tasvirida yan bir joyda "yo'lbars timsolodan foydalaniladi. Barchinoy to'y payti o'g'li Yodgorga otasi Alpomish yurtga qaytganini sezib shunday ta'riflaydi.

Mard yigit *maydonga kirsa jellidir,*
To'qayda ***yo'lbarsning izi*** *bellidir*[1].

Taniqli adabiyotshunos O.Madayev "dostonda insonning ma'naviy qiyofasini belgilovchi ezgulik, haqiqiy odamlarga mehribonlik, diyonat, chidamlilik kabi oliy fazilatlar haqida xalqning fikrlari ifodalanganini ham his etamiz" [2]deb bejizga aytmagan. O'zbek xalqida yigitlarga nisbat berilganda "mard" so'zini ishlatiladi. "Mard yigit" epitetli birikmasi esa, qahramonni kuchli, botir, jasur ekaniniga bir ur'gu berib o'tish uchun berilgan.

Misralarda kelgan asosiy epitet "yo'lbarsning izi" hisoblanadi. Yo'lbarsning izi qayerdaligiga e'tibor beraylik. "To'qay" xalq og'zaki ijodida "jang maydoni"ning ramzini beradi. Demak, Barchiniy to'yxonaga Alpomishning kelishi "to'qayga yo'lbarsning izi" borligini belgisi bor deya ta'riflaydi.

Dostonning yana bir muhim qahramonlaridan biri hech shubhasiz Qaldirgochoyimdir. Alpomish o'ldi deb tuya boqib yurgan paytda akasidan kelgan xatni o'qib, uni tirikligini eshitadi. Ana shu syujet baxshi tomonidan shunday misralar bilan boshlanadi:

Azob berdi shirin jonim bu tanda,
Kalmago'y bandaman, bo'lmay sharmanda,
Tirik ekan mehribonim zindonda,
O'lgan yo'q ekan-ku, akam omonda[3].

Jigarini tirik ekanini eshitganidan xursand bo'lgan Qaldirg'ochoyim birdan yoruqlikka chiqqan kayfiyatda so'zlashni boshlaydi. "Shirin jon", "kalmago'y banda" va "mehribonim" kabi so'z va so'z birikmalari bilan epitet hosil bo'ladi.

Birinchida berilgan "shirin jon"epitetida metafora ham mavjud. Ya'ni, jonning aslida ta'mi yo'q. "Shirin" so'zi "jon" leksemasi bilan birikkanda inson uchun hayot, yashash va tiriklik qanchalik aziz va qadrli ekanini ko'rsatadi. Dostonda "azob berdi shirin jonim bu tanda" deganda boshga tushgan kulfat va ayriliq dardi insonning eng shirin va aziz ne'mati bo'lgan hayotini ham zobga to'ldirib yuborganini ta'kidlaydi.

Misralardagi ikkinchi epitet "kalmago'y banda" so'z birikmasi bilan ifodalangan. Aslida "kalimago'y banda" shaklida bo'lishi kerak edi, Ammo folklorshunoslikda aytuvchi baxshi tilida shevaga xos so'zlar ham berilishi mumkin. Shuning uchun "kalimago'y" so'zi "kalmago'y" tarzida berilgan. Bu xato hisoblanmaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida "kalimago'y" so'ziga "kalimayi shahodatni doim takrorlab turuvchi musulmon"[4] deya ta'rif berilgan. Demak, bu epitet Qaldirg'ochoyimni musolmonligiga iqrorligini birinchi belgisi "kalimayi shahodat"ni takrorlab yurishini anglatadi. Bu epitetni sadoqatni ifodalovchi epitetlar qatoriga qo'shish mumkin.

Oxirgi epitet "mehribonim" sifatini bilan ifodalanadi. Bu epitet Alpomishga tegishli bo'lib, misrada "akam" so'zini izohlab keladi.

Rus olimi B.V.Tomashevskiy "epitet aniqlanayotgan so'zda mavjud bo'lmagan yangi xususiyat kiritmaydi"[5] degan fikrni ilgari suradi. Bu fikrning aksi o'laroq, "O'zbek tilida epitetlarning lingvopoetik tadqiqi" bo'yicha doktorlik ishini qilgan Z.Normurodova "epitet shaxs, narsa, voqea-hodisaning oddiy aniqlovchi bo'lib qolmasdan, balki ularning poetik obraz darajasigacha olib chiqolganligi, mohiyatini, g'oyaviy-estetik qiymatini muayyan badiiy matndagi vazifasini belgilab berolgani bilan ham e'tiborlidir"[6] deb fikr bildiradi. Ikki fikrda ham asos yetarli. Aslida Z.Normurodova V.N.Tomashevskiyning tomonidan bildirilgan fikrlarni inkor qilmaydi. Tadqiqotchi rus olimining fikrlarini o'zbek tilida uchraydigan epitetlardan tahlil qilib to'ldiradi. Ya'ni bazida oddiy yangi ma'no kiritmaydigan epitet ham jumla yoki misraning mohiyatini, badiiy-estetik qiymatini ham belgilab berishi mumkin. Bunday misolni biz yuqorida Qaldirg'ochoyim o'zini "kalmago'y banda" deb atagan epitetlarni misol qilishimiz mumkin. Birgina shu epitet bilan doston qahramoni islom diniga qanday sobit ekanini bilib olishimiz mumkin. Va bu g'oya butun bir doston davomida Qaldirg'ochoyimning portretida yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, "Alpomish" dostonida qahramonlar portretini yaratishda epitet muhim badiiy tasviriy vosita sifatida foydalanilgan. U shunchaki beazok yoki tasvir vositasi bo'lib qolmay, balki qahramon obrazining ichki mohiyatini, g'oyaviy-estetik qimmatini ochib beruvchi poetic unsur darajasiga ko'tarilgan. Dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan aytilgan variantning tahlilidan epitet-

[1] Alpomish: Xalq og'zaki ijodi/ "Alpomish" dostonlari turkumidan. – Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023. – B. 434.
[2] Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi.(Akademik litseylar uchun darslik – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 124.
[3] Alpomish: Xalq og'zaki ijodi/ "Alpomish" dostonlari turkumidan. – Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023. – B. 343.
[4] Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A. va boshqalar. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 719.
[5] Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Ленинград, 1959. – С. 203.
[6] Normurodova Z. O'zbek tilidagi epitetlarning lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.fal.dok. ...diss.avtoreferat – Termiz, 2025. – B. 14.

lar qahramonlik va jasoratni, nasl-nasabni, ko'zallik va latofatni, salbiy xarakter hamda dushman holatini, ruhiy hissiyotlarni va sadoqatni ifodalovchi kabi tematik guruhlarga ajratish mumkinligi aniqlandi. Bu tematik tasnif dostondagi qahramonlari chuqur tushunishga va xalq dostonchiligi poetikasini umumiy xususiyatlarini yanada yoritishga xizmat qiladi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning davom ettirilishi dostonning boshqa variantlari hamda boshqa xalqlarning qahramonlik eposi bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Qolaversa, ushbu tematik tasnif o'zbek epic an'analaridagi epitet poetikasi haqidagi ilmiy tasavvurni yanada boyitadi.

Rezyume. "Alpomish" dostonida qahramonlar portretini yaratishda epitet muhim badiiy tasviriy vosita bo'lib xizmat qilgan. Ushbu maqolada "Alpomish"ning Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan aytilgan variant tahlil uchun olinib unda mavjud epitetlar bir nechta tematik guruhlarga ajratilgan. Umuman olganda, baxshi portret tasviri uchun metaforik va zoomorfik epitetlardan foydalangani yaqqol namoyon bo'ldi.

Resume. In the epic "Alpomish" the epithet has served as an important artistic and descriptive device in creating the portraits of the heroes. This article examines the version of "Alpomish" as narrated by Fozil Yoldosh ugli, in which the existing epithets are divided into several thematic groups. Overall, it became evident that the bakhshi (epic singer) predominantly used metaphorical and zoomorphic epithets for portrait description.

Резюме. В эпосе "Алпомыш" эпитет служил важным художественно-изобразительным средством при создании портретов героев. В данной статье для анализа был взят вариант "Алпомыша", рассказанный Фозилом Йўлдош угли, в котором имеющиеся эпитеты разделены на несколько тематических групп. В целом стало очевидным, что сказитель (бахши) при создании портретной характеристики преимущественно использовал метафорические и зооморфные эпитеты.